



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN.....	93
Axliddin Aroptdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIq-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulaton Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Hakimova Oydina Abdulhamidovna

Farg'ona davlat texnika universiteti, 2-kurs magistranti

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna

Farg'ona davlat texnika universiteti, Menejment va marketing
kafedrası dotsenti, Iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy subyektlarning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Xususan, milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan "innovatsion rivojlanish" va "innovatsion salohiyat" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida innovatsion salohiyat darajasini belgilovchi omillar ikki asosiy guruhga — tashqi va ichki muhit omillariga ajratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, innovatsion salohiyat, innovatsion faoliyat, boshqaruv tizimi, korxonalar va tashkilotlar, samaradorlik.

Abstract. This article analyzes current issues related to the innovative development of economic entities. In particular, the interrelationship between the concepts of "innovative development" and "innovation potential" applied to enterprises operating in various sectors of the national economy is considered from a scientific and theoretical perspective. Based on the analysis conducted in the article, the factors determining the level of innovation potential are divided into two main groups: external and internal environmental factors.

Key words: innovative development, innovation potential, innovative activity, management system, enterprises and organizations, efficiency.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные вопросы, связанные с инновационным развитием экономических субъектов. В частности, с научно-теоретической точки зрения рассматривается взаимосвязь между понятиями «инновационное развитие» и «инновационный потенциал», применяемыми к предприятиям, функционирующим в различных отраслях национальной экономики. По результатам проведенного анализа факторы, определяющие уровень инновационного потенциала, разделены на две основные группы: факторы внешней и внутренней среды.

Ключевые слова: инновационное развитие, инновационный потенциал, инновационная деятельность, система управления, предприятия и организации, эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda to'qimachilik va tikuvchilik sanoati bir qator hal etilishi lozim bo'lgan tizimli masalalarga duch kelmoqda hamda mutaxassislar, tadqiqotchilar va davlat siyosatini belgilovchi organlarning e'tibor markazida turibdi. Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — to'qimachilik va tikuvchilik sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi ekologik omillarni aniqlash va ular asosida innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

Korxonalar innovatsion rivojlanishining tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi makroekologik omillarni kompleks tarzda aniqlash, baholash va ilmiy asoslash hozirgi davrda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiya zamonaviy iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib, u raqobatbardosh import mahsulotlarini mahalliy mahsulotlar bilan samarali almashtirish, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari davlat darajasida alohida e'tibor talab qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R.A. Fathutdinovning fikricha, innovatsion faoliyat — bu strategik marketing, ilmiy-tadqiqot ishlari, ishlab chiqarishni tashkiliy va texnologik jihatdan tayyorlash, innovatsiyalarni loyihalash va amaliyotga joriy etish, shuningdek, ularning boshqa sohalarga tarqalishini (diffuziyasini) o'z ichiga oluvchi kompleks jarayondir [1].

Jarayonli yondashuv nuqtayi nazaridan, innovatsion rivojlanish yangi mahsulotlarni yaratish, ilg'or ishlab chiqarish usullarini joriy etish, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy shakllarini tatbiq etish hamda yangi bozorlarni o'zlashtirishdan iborat uzluksiz jarayonlar tizimi sifatida talqin etiladi [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion faoliyatga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Jumladan, ayrim mualliflar uni yangi mahsulotlar, texnologiyalar va boshqaruv usullarini yaratish yoki takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida ta'riflaydilar.

V.V. Gurochkina innovatsion faoliyatni korxonaning ichki salohiyatini tashqi imkoniyatlar bilan uyg'unlashtiruvchi murakkab tizimli jarayon sifatida izohlaydi [3]. Uning ta'kidlashicha, mazkur jarayon doimiy ravishda yangi yo'nalishlarni izlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va paydo bo'layotgan istiqbollarni amaliyotga tatbiq etish orqali korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

I.S. Borisova o'z tadqiqotlarida innovatsion rivojlanishni daromadlilik va investitsiya xavfi nuqtayi nazaridan, shuningdek, investitsion jozibadorlikni fond bozori orqali biznes qiymatini oshirish omili sifatida baholaydi [4]. U taklif etgan ushbu yondashuv innovatsion rivojlanishga moliyaviy samaradorlik mezonlari asosida yondashish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, ushbu nuqtayi nazardan innovatsion boshqaruv daromad va foyda olishning asosi bo'lib xizmat qiladigan, yangi qiymat yaratishga yo'naltirilgan tizimli jarayon sifatida talqin etilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda strategik menejment tizimini shakllantirish bo'yicha kompleks yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, ekspert baholash, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanilib, mavzuning nazariy hamda amaliy jihatlari chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyot innovatsion rivojlanish konsepsiyasini mikro, mezo va makro darajalarda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv darajalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni namoyon etadi, chunki iqtisodiyotning har bir bosqichidagi innovatsion faollik bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Shu ma'noda, korxona iqtisodiyotning asosiy tarkibiy bo'g'ini hamda innovatsion rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Aynan shu darajada faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini tanlash, xarajatlarni optimallashtirish, bozorning o'sish istiqbollarini aniqlash, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Natijada, korxonalarning samarali innovatsion faoliyati nafaqat ularning daromadlilikini oshiradi, balki mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlarda innovatsion salohiyatni kuchaytiradi hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan istiqbolli yo'nalishlarni shakllantiradi.

Korxonaning innovatsion faoliyati mohiyatan ikki asosiy omil bilan belgilanadi: birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes xatti-harakatlarining moslashuvchanligi, xilma-xilligi va dinamik rivojlanishi; ikkinchidan esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardosh ustunliklarga erishishga bo'lgan intilishi.

Boshqacha aytganda, innovatsion faoliyat bozor muhitidagi o'zgarishlarga javoban yuzaga keladigan jarayon bo'lib, u nafaqat mazkur muhit ta'sirida shakllanadi, balki o'zi ham bozor muhitining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, innovatsion faoliyatni faqat ichki tashkiliy omillar bilan emas, balki tashqi iqtisodiy va institutsional sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq holda tahlil qilish zarur.

Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyati uchun tashqi muhitning holati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki korxona faoliyat yuritayotgan tashqi muhit uning mavjudligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Bozor muhiti tarkibining murakkabligi korxona innovatsion faoliyatini belgilovchi omillarning ko'p qirrali va o'zaro ta'sirchanligini keltirib chiqaradi. Ilmiy adabiyotlarda qabul qilingan tasnifga ko'ra, ushbu omillar ikki guruhga bo'linadi:

1. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi (mikromuhit) omillar — iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, vositachilar, investorlar va aloqa auditoriyalarini o'z ichiga oladi. Ular korxonaning innovatsion strategiyasi va mahsulot siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Bilvosita ta'sir etuvchi (makromuhit) omillar — iqtisodiy, texnologik, tashkiliy, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy va huquqiy omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar innovatsion faoliyatning tashqi sharoitini belgilaydi, ya'ni korxonaning innovatsion salohiyatini qo'llab-quvvatlaydigan yoki cheklaydigan tizimli asosni yaratadi.



Korxonaning innovatsion faoliyati ichki resurslar va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab iqtisodiy jarayon bo'lib, u korxonaning raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim strategik yo'nalishlardan biridir.

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillar (mikromuhit omillari) — bu korxonaning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va uning strategik hamda operatsion qarorlarini shakllantiruvchi tashqi sharoitlar majmuasidir. Ushbu omillar korxonaning rivojlanish sur'ati, ishlab chiqarish hajmi, innovatsion faoliyat darajasi va umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, mikromuhit omillari korxona uchun o'ziga xos imkoniyatlar va rivojlanish yo'nalishlari tizimi vazifasini bajaradi.

Mikromuhit omillari orasida raqobatchilar alohida o'rin tutadi. Ular korxonaning innovatsion faoliyati mazmunini, yo'nalishini va sur'atini belgilovchi asosiy tashqi omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat — bu korxonalarning ishlab chiqarish, marketing, boshqaruv va tashkiliy sohalarida yangi innovatsiyalarni yaratish va joriy etish orqali barqaror raqobat ustunligini shakllantirish jarayonidir.

Biroq, bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish istagi ko'pincha korxonadan qo'shimcha ilmiy-tadqiqot, texnologik modernizatsiya va marketing xarajatlarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyatning rivojlanishi ikki tomonlama, dialektik xarakterga ega:

- bir tomondan, innovatsion salohiyatni oshirish korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi;
- boshqa tomondan, innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan katta hajmdagi investitsiyalar xarajatlarning ortishiga olib kelib, qisqa muddatli rentabellik darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, ushbu dialektik muvozanatni saqlashning eng maqbul yo'li — korxonaning strategik rivojlanish maqsadlarini innovatsion faoliyatni kuchaytirish bilan uzviy bog'lash, shu bilan birga, taktik darajada tashqi muhit bilan resurs almashinuvi uchun eng samarali va iqtisodiy jihatdan foydali yo'nalishlarni tanlashdan iborat.

Boshqacha aytganda, korxona innovatsion faoliyatga investitsiya kiritish va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida oqilona muvozanatni topa olgan taqdirdagina, raqobat ustunligini barqaror saqlab qolish imkoniga ega bo'ladi.

Korxonalarning innovatsion faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda strategik boshqaruv yondashuvi (SNW-tahlil) muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv korxonaning tashqi muhitini tizimli tahlil qilish orqali innovatsion rivojlanish uchun imkoniyatlar va omillarni aniqlashga imkon beradi. SNW-tahlilga ko'ra, korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi makro va mikro muhit omillari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1. Innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar (Stimulating factors) — bu omillar korxonaning innovatsion faolligini oshiradi, yangi g'oyalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni tijoratlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

2. Neytral omillar (Neutral factors) — bu omillar korxonaning innovatsion faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ular asosan muhitning tabiiy, tashkiliy yoki vaqtinchalik holatlariga bog'liq bo'lib, innovatsion qarorlar qabul qilish jarayonida ikkilamchi rol o'ynaydi.

3. Innovatsion faoliyatni cheklovchi omillar (Inhibiting factors) — bular innovatsion faoliyat sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, korxonaning texnologik yangilanish jarayonlarini murakkablashtiruvchi, moliyaviy, tashkiliy yoki institutsional xususiyatga ega omillardir.

Shubhasiz, rag'batlantiruvchi va innovatsion faoliyatni cheklovchi omillar korxona faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega, chunki neytral omillarning ta'siri odatda chegaralangan yoki vaqtinchalik bo'ladi.

Quyida 1-jadvalda innovatsion faoliyatga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi eng muhim omillar tahlil qilingan.

1-jadval. Korxona innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (SNW-tahlil asosida)¹

Guruh	Omillar tavsifi	Ta'sir yo'nalishi	Natijaviy ta'sir
Rag'batlantiruvchi omillar	Davlat tomonidan innovatsion siyosatni qo'llab-quvvatlash, grantlar va subsidiyalar, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasining mavjudligi, xorijiy investitsiyalar oqimi, raqobat muhiti va startap ekotizimi rivoji	Ijobiy	Innovatsion faollik, texnologik modernizatsiya, yangi mahsulot va xizmatlar yaratilishi
Neytral omillar	Tabiiy-geografik sharoit, vaqtinchalik iqtisodiy sikllar, ayrim texnologik o'zgarishlarning lokal ta'siri	Neytral	Innovatsion faoliyatga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi
To'sqinlik qiluvchi omillar	Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, eskirgan texnologiyalar, malakali kadrlar tanqisligi, tartibga solishdagi byurokratik to'siqlar, innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi, intellektual mulk himoyasining zaifligi	Salbiy	Innovatsion jarayonlarning sekinlashuvi, raqobatbardoshlikning pasayishi

1 Muallif ishlanmasi



Mazkur tasnif korxonaga innovatsion strategiyani shakllantirishda tashqi muhitning qaysi jihatlariga e'tibor qaratish zarurligini aniqlash imkonini beradi. Shu asosda, innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omillarni kuchaytirish, innovatsion rivojlanishni cheklovchi omillarni esa kamaytirish korxonaning innovatsion salohiyatini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi va cheklovchi omillar o'rtasidagi chegara juda nozik va shartli tusga ega. Ba'zi hollarda dastlab cheklovchi omil sifatida baholangan holatlar, ma'lum sharoitlar o'zgarishi natijasida innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi omillarga aylanishi mumkin.

Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida korxona rahbarlari tomonidan davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokining kamaytirilishi ijobiy holat sifatida qabul qilingan. Ammo vaqt o'tishi bilan, ayniqsa raqobat kuchaygani sari, yirik investitsion loyihalarda davlat-xususiy sheriklik tizimining afzalliklari aniq namoyon bo'ldi. Bugungi kunda esa davlat hokimiyati organlarining innovatsion jarayonlarni oqilona tartibga solishi va muvofiqlashtiruvchi rolni bajarishi zarurati tobora ortib bormoqda [5].

Shu nuqtai nazardan, innovatsion jarayonlarni boshqarishda davlatning roli ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi:

1. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish — bu moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalar tizimini rivojlantirish, innovatsion infratuzilmani kengaytirish orqali amalga oshiriladi.
2. Innovatsion faoliyatni cheklovchi omillarni kamaytirish — bu me'yoriy-huquqiy bazani soddalashtirish, ortiqcha ma'muriy jarayonlarni qisqartirish, litsenziyalash va sertifikatlash tartiblarini optimallashtirishni o'z ichiga oladi.

Korxona miqyosida ham innovatsion rivojlanish strategiyasi ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligiga asoslanishi zarur. Ya'ni, korxona cheklovchi omillar ta'sirini kamaytirish bilan bir qatorda, mavjud ijobiy imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim.

Biroq, amaliy nuqtai nazardan qaraganda, o'rta va kichik sanoat korxonalari uchun ushbu ikki yo'nalishni bir vaqtning o'zida to'liq amalga oshirish resurslar cheklanganligi sababli murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois, bunday holatlarda muqobil strategik yondashuv zarur bo'ladi. Ya'ni, korxona mavjud resurslar, infratuzilma va tashqi iqtisodiy muhit imkoniyatlarini tahlil qilgan holda, faqat eng ustuvor yo'nalishlardan biri — masalan, rag'batlantiruvchi omillarni kuchaytirish yoki cheklovchi omillar ta'sirini kamaytirish — ustida strategik e'tibor qaratadi.

Natijada, korxonaning innovatsion salohiyatini oshirish uchun moslashuvchan boshqaruv modeli shakllanadi. Bu esa iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob berish va raqobatbardoshlikni saqlash imkonini beradi.

Korxonaning innovatsion rivojlanish dinamikasi tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Tashqi muhit omillarining innovatsion jarayonga salbiy ta'siri, odatda, quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- innovatsion faoliyat samaradorligini ishonchli baholash mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, bu esa innovatsion loyihalarining iqtisodiy natijalarini noto'g'ri prognozlashga olib keladi;
- davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy tartibga solish choralarining ayrim hollarda innovatsion rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi, xususan, soliq siyosati, import-eksport tartiblari va bojxona tartiblaridagi o'zgarishlar;
- qonunchilik bazasining takomillashtirishni talab qilishi, shu jumladan xalqaro huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlik darajasining yetarli emasligi, bu esa innovatsion faoliyatning huquqiy kafolatlariga ta'sir ko'rsatadi;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasining cheklanganligi, bu esa yangi g'oyalarning amaliyotga joriy etilish sur'atlarini pasaytiradi;
- innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni rag'batlantirish tizimini yanada rivojlantirish zarurati, natijada startap va texnoparklarda tashabbuslarning yanada faol bo'lishi uchun qo'shimcha sharoitlar talab etiladi;
- malakali ilmiy va texnik xodimlarning boshqa mamlakatlarga faoliyat olib borish uchun ketishi, ya'ni " intellektual oqim " hodisasi kuchayishi, bu esa mamlakat innovatsion salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, korxonaning innovatsion faoliyatini shakllantiruvchi ichki omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy va moliyaviy omillar — korxonaning umumiy strategik maqsadlari, moliyaviy siyosati, investitsion resurslar hajmi hamda innovatsion salohiyat darajasi;
- kadrlar salohiyati va bilimlar menejmenti — korxona tarkibida ilmiy-tadqiqot va texnologik bo'limlarda yuqori malakali mutaxassislar, muhandislar va innovatsion menejerlarning mavjudligi;
- moliyalashtirish imkoniyatlari — innovatsion investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur ichki va tashqi moliyaviy manbalar, jumladan, korxonaning sof foydasi, kredit liniyalari, grantlar va venchur kapital darajasi;
- texnologik omillar — korxonaning moddiy-texnik bazasining zamonaviyligi, ishlab chiqarish jarayonining avtomatlashtirish darajasi, texnologik jihozlarning innovatsiyalarni qabul qilishga tayyorligi;



– tashkiliy-boshqaruv omillari — innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimining samaradorligi, qaror qabul qilish vakolatlari aniq belgilangan boshqaruv organlarining mavjudligi, bo'limlararo muvofiqlashtirish mexanizmlarining shakllanganligi;

– madaniy va ijtimoiy-psixologik omillar — tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashishni ta'minlash uchun rahbariyat va xodimlarning ichki muhitga faol ta'siri, korxona madaniyatining innovatsiyalarga ochiqligi va jamoaviy hamkorlik darajasi;

– siyosiy-huquqiy omillar — ichki me'yoriy hujjatlarda aks ettirilgan korxonaning soliq, buxgalteriya hisobi va moliyaviy siyosati, patent va litsenziyalash faoliyati, shuningdek innovatsion rivojlanish uchun mavjud davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion boshqaruv tizimi hamda umuman innovatsion faoliyat samaradorligini baholash jarayoni, avvalo, mavjud kuchli va zaif jihatlarni, afzalliklar hamda takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga asoslanishi lozim. Ushbu baholash innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarning salbiy ta'sirini aniqlash, ularni kamaytirish yoki bartaraf etishga qaratilgan strategik choralarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Innovatsion jarayonlarni takomillashtirish samaradorlikni baholashdan keyin amalga oshirilishi mumkin, chunki baholash natijalari innovatsion boshqaruv tizimining muhim elementlarini — mavjud cheklovlarni, qaror qabul qilish mexanizmlarini, resurs tanlash vositalarini va innovatsiyani shakllantiruvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion jarayonning barcha bosqichlarida kompleks ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi.

Shu asosda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali tashkil etilgan innovatsion faoliyat innovatsion jarayonlar sifatini oshirishga, ularning natijadorligini ta'minlashga va innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Санкт-Петербург: Питер Пресс, 2008. – 442 с.
2. Riepina I., Hrybinenko O., Parieva N. et al. Quantity Assessment of the Risk of Investment Projects // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE). – 2019. – Vol. 8, No. 3. – Pp. 7256–7260. – DOI: 10.35940/ijrte.C6338.098319.
3. Гурочкина В.В. Инновационный потенциал предприятия: сущность и система защиты // Экономика: реалии времени. – 2015. – № 5. – С. 51–57.
4. Борисова И.С. Основы инновационного развития предприятий // Известия Пензенского государственного педагогического университета имени В.Г. Белинского. Общественные науки. – 2011. – № 24. – С. 225–229.
5. Касс М.Е. Формирование стратегии инновационного развития предприятия на основе управления нематериальными активами: монография. – Н. Новгород: ННГАСУ, 2011. – 159 с.
6. Yuldasheva N. Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises // Bulletin of Science and Practice. – 2022. – Vol. 8, No. 5. – Pp. 457–461. – DOI: 10.33619/2414-2948/78/53.
7. Yuldasheva N. Factors Influencing the Implementation of the Innovation Strategy at Industrial Enterprises // World Bulletin of Management and Law. – 2023. – Vol. 19. – Pp. 5–11.
8. Yuldasheva N. Features of the Process of Forming Innovative Strategy under Conditions of Modern Realities // Academic Research in Modern Science. – 2022. – Vol. 1. – No. 9. – Pp. 310–312.
9. Юлдашева Н. Особенности управления стратегией инновационного развития на предприятиях // Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – № 2. – С. 129–135.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
